

TIJORAT BANKLARINING KREDIT PORTFELI BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Nematjonov Farruh Farxodbek o'g'li
Bank moliya akademiyasi magistranti

Anotatsiya

Mazkur tadqiqot ishida tijorat banklarining kredit portfeli, uni shakllantirish va samarali boshqarish masalalari chuqur tahlil qilinadi. Kredit portfeli bank faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, uning sifati bankning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham kredit risklarini minimallashtirish, kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, zamonaviy tahlil usullaridan foydalanish va xalqaro tajribani amaliyotga joriy etish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ishda tijorat banklarining kredit portfelini boshqarishda mavjud muammolar, ularning sabablari va bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Abstract

In this research work, the credit portfolio of commercial banks, its formation, and effective management issues are thoroughly analyzed. The credit portfolio is one of the key indicators of a bank's activity, and its quality directly affects the financial stability and competitiveness of the bank. Therefore, minimizing credit risks, improving lending mechanisms, applying modern analytical methods, and introducing international best practices into practice are of particular importance. The study examines the existing problems in managing the credit portfolio of commercial banks, the reasons behind them, and the ways to eliminate them.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, kredit portfeli, kredit risklari, moliyaviy barqarorlik, kredit siyosati, risklarni boshqarish, diversifikatsiya, bank islohotlari, samaradorlik.

Keywords: Commercial banks, credit portfolio, credit risks, financial stability, credit policy, risk management, diversification, banking reforms, efficiency.

Kirish

Mamlakatimiz moliyaviy tizimining barqarorligini saqlash va uni izchil rivojlantirishda tijorat banklarining kredit operatsiyalarini samarali boshqarishi muhim rol

o‘ynaydi. Kredit portfelini bankning moliyaviy holatini aks ettiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, uning sifatli boshqaruvi daromad olish imkoniyatlarini oshiradi, shuningdek bankning xavfsizligi va likvidligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu bois, kredit portfelini boshqarish jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirish va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarurati kundan-kunga oshib bormoqda.

Tijorat banklarining asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan biri bu — kreditlashdir. Kredit operatsiyalari banklar daromadining asosiy manbai hisoblanadi. Shu sababli banklarning kredit portfelini to‘g‘ri boshqarish ularning moliyaviy barqarorligi va rentabelligini ta‘minlaydi. Kredit portfelini bu — bank tomonidan berilgan barcha kreditlar yig‘indisi bo‘lib, u turli mezonlar bo‘yicha tasniflanadi: muddati, valyutasi, ta‘minlanganlik darajasi, sektorlar bo‘yicha taqsimoti va boshqalar.

Biroq, kredit portfelining noto‘g‘ri boshqarilishi bank uchun katta risklarni keltirib chiqaradi — jumladan, likvidlik yetishmasligi, to‘lovga qodir bo‘lmagan mijozlar, zararli kreditlar ulushi (NPL) ortishi. Shu sababli har bir bank o‘zining kredit portfelini boshqaruv mexanizmini doimiy ravishda takomillashtirib borishi zarur.

Banklarning kredit portfelini holatida uchraydigan muammolar ko‘p hollarda noto‘g‘ri guruhlash, risklarni baholashdagi kamchiliklar, muammoli kreditlar hajmining oshishi hamda monitoring tizimining yetarli darajada ishlamasligidan kelib chiqadi. Bunday holatlar kredit portfelining sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, bankning moliyaviy ko‘rsatkichlariga zarar yetkazadi va uning barqarorligini zaiflashtiradi.

Zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali kredit risklarini kamaytirish mumkin. Jumladan, sun‘iy intellekt, katta ma‘lumotlar tahlili (Big Data) va avtomatlashtirilgan kredit baholash tizimlari kreditlarni real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, kredit portfelini tarmoqlar, hududlar va mijozlar bo‘yicha kengaytirish — diversifikatsiya — risklarni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari, mijozlarning moliyaviy holatini puxta o‘rganish, xavf omillarini aniqlashda xalqaro standartlar va ilg‘or usullardan foydalanish kredit sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Natijada, kredit portfelini zamonaviy texnologiyalar va strategiyalar asosida boshqarish bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi,

daromadlarni oshiradi hamda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Kadrlar malakasini oshirish: Kredit sohasidagi mutaxassislarni muntazam o'qitish, yangi boshqaruv usullari va zamonaviy yondashuvlarni o'rgatish orqali kredit faoliyatining samaradorligini oshirish mumkin. Tijorat banklarida kredit portfelini sifatli boshqarish bankning moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, ilg'or boshqaruv usullari va malakali mutaxassislar yordamida kredit portfelining sifatini yaxshilash, muammoli kreditlarni kamaytirish hamda risklarni samarali nazorat qilish imkonini beradi. Natijada, butun moliya tizimi barqaror ishlaydi, iqtisodiyot rivojlanadi va aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ishonchi ortadi.

10 jadval Bank kredit portfeli auditida tahlilning asosiy bosqichlari

No	Tahlil qismlari	Ma'lumotlarni aniqroq ochib berilishi
1	Kreditlarning holati bo'yicha tahlili	Joriy, muddati o'tgan, muddati uzaytirilgan, suddagi kreditlar, o'sib bormaydigan statusdagi kreditlar, hisobdan chiqarilgan kreditlar.
2	Kreditlarning muddati bo'yicha tahlili	Qisqa muddatli, uzoq muddatli overdraftlar.
3	Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tahlili	Sanoat, qishloq xo'jalik, kichik biznes, savdo, davlat translari, mikrokreditlar, iste'mol kreditlari.
4	Foiz stavkalari bo'yicha tahlili	Imtiyozli, qayta moliyalashtirish stavkasi darajasida, tijorat.
5	Ta'minot turi bo'yicha tahlili	Ishonchli kreditlar, mulk garovi, uchinchi shaxs kafolati, kafolatlangan kreditlar.
6	Kredit sifati tahlili	Yaxshi, standart, substandart, shubhali, ishonchsiz.
7	Kreditlarning manbasi bo'yicha tahlili	Bankning o'z mablag'lari, jalb qilingan mablag'lar.
8	Kreditlarning maqsadi bo'yicha tahlili	Tijorat, aylanma mablag'larni to'ldirish.
9	Audit qilish davrida kreditlarning o'zgarishi dinamikasining tahlili	Kreditlash hajmining oshishi yoki kamayishi, muammoli kreditlarning ulushi va ular bilan ishlash samaradorligining, rezervlar summasining, kredit aktivlari rentabelligining o'sishi yoki pasayishi.

Manba: Abdullaev Sh kitobidan olingan.

Kredit portfelini samarali boshqarish bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, uning tarkibi va sifatini doimiy ravishda nazorat

qilishni talab etadi. Bu jarayon tijorat banklari tomonidan ishlab chiqilgan asosiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Kredit risklarini boshqarish uchun mos muhitni shakllantirish: Bank Kengashi kredit siyosati va risklarni boshqarish strategiyasini tasdiqlash va bajarilishini nazorat qilish uchun mas'uldir. Ushbu strategiya bankning ehtiyotkorlik tamoyillarini ifodalashi, shuningdek, zimmaga olingan risklarning daromadlilik ko'rsatkichlari bilan uyg'unlashishini ta'minlashi lozim. Bank boshqaruvi esa ushbu strategiyani amaliyotga tatbiq etish, risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish uchun zarur mezonlarni ishlab chiqish vazifasini bajaradi. Bu mezonlar bank faoliyatining barcha sohalarida yuzaga keladigan kredit risklarini qamrab olishi shart. Bank yangi faoliyat yoki xizmatni joriy etishdan oldin unga bog'liq kredit risklarini baholab, yuqori rahbariyat tomonidan ularni qabul qilishiga ishonch hosil qilishi lozim.

2. Kreditlarni berishda qat'iylik va asoslangan yondashuv: Bank kreditlarni berishda qat'iy belgilangan qoidalar va me'yorlarga amal qilishi kerak. Bu me'yorlar bozorni to'liq tahlil qilish, qarzdor yoki kontrahent haqidagi ma'lumotlarni to'plash, kreditning maqsadi va uni qoplash manbalarini aniq belgilashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bank qarzdor va kontrahentlarning turli risk darajalarini aniqlash hamda ularni hisobga olgan holda kredit me'yorlarini belgilashi lozim. Kreditlarni tasdiqlash va ularga o'zgartirishlar kiritish jarayonlari aniq tartibga solingan bo'lishi talab etiladi.

3. Kredit portfelini boshqarishning samarali tizimi: Bankda turli kredit portfellarini boshqarish uchun alohida tizim yaratilishi zarur. Bundan tashqari, kreditlarga ajratilgan rezervlar miqdori va ularning yetarliligini doimiy monitoring qilish tizimi mavjud bo'lishi kerak. Bank ichki reyting tizimini ishlab chiqib, undan kredit risklarini baholash va boshqarishda foydalanishi lozim. Bu tizim bankning faoliyat doirasi va murakkabligiga mos kelishi shart. Bank rahbariyati kredit risklarini boshqarish uchun zamonaviy axborot va analitik vositalarni joriy qilishi, shuningdek, kredit portfelining umumiy holatini muntazam nazorat qilib boradigan tizimni yo'lga qo'yishi muhimdir. Kredit portfelining baholashida kelajakdagi iqtisodiy sharoitlar o'zgarishi va mumkin bo'lgan risklar hisobga olinishi zarur.

4. Kredit risklarini mustaqil nazorat qilish: Bank kredit risklarini boshqarish jarayonlarini mustaqil baholovchi tizimni tashkil etishi va natijalarni Bank Kengashi yoki yuqori rahbariyatga bevosita taqdim etishi lozim. Kreditlarni berish jarayonlari bank ichki standartlari va me'yorlariga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash hamda yuzaga kelgan muammolarni tezkor hal etish mexanizmlariga ega bo'lish bank uchun muhimdir.

Tijorat banklari o'z faoliyatida foyda va risk o'rtasida muvozanatni saqlab, ortiqcha tavakkalchilikdan saqlanishlari zarur. Shuningdek, bir nechta yirik qarz oluvchilarga kreditlarning me'yordan oshiqcha to'planishiga yo'l qo'ymaslik siyosatini qat'iy amalga oshirishi kerak. Bu chora-tadbirlar bankni jiddiy moliyaviy yo'qotishlardan himoya qiladi va kredit portfelining sog'lomligini ta'minlaydi.

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2020 — 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida Moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg‘or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi. Xususan, xalqaro standartlarga muvofiq keladigan va moliyaviy sohaga xorijiy investitsiyalar kiritish uchun jozibador huquqiy muhitni yaratadigan O‘zbekiston Respublikasining [“O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”](#)gi, [“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”](#)gi, [“Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”](#)gi hamda [“To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”](#)gi yangilangan qonunlari qabul qilindi. Shu bilan birga, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagi xizmatlar ko‘rsatilishini ta'minlash bo'yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi lozim.” (lex.uz)

2-jadval. Tijorat banklarining kredit portfelida jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig‘i to‘g‘risida ma'lumot, mlrd so‘m

Ko'rsatkich nomi	01.01.2023 y.		01.01.2024 y.		O'zgarishi, (foizda)
	mlrd so'm	ulushi, foizda	mlrd so'm	ulushi, foizda	
Kredit qoldig'i					
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i	100 949	100,00	148 621	100,00	47%
Ipoteka kreditlari	46 460	46,02	58 177	39,14	25%
Mikroqarzarlar	14 651	14,51	24 525	16,50	67%
Iste'mol kreditlari	23 177	22,96	44 589	30,00	92%
Ta'lim kreditlari	2 057	2,04	4 745	3,19	131%
Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar	14 567	14,43	16 395	11,03	13%
Boshqa kreditlar	36	0,04	191	0,13	423%
Yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i	289 100	100,00	322 784	100,00	12%
Kredit tashkilotlari bo'lmagan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar	272 485	94,25	308 765	95,66	13%
Lizing va faktoring	1 564	0,54	2 034	0,63	30%
Banklararo kreditlar	1 154	0,40	1 165	0,36	1%
Mikrokreditlar	9 166	3,17	5 281	1,64	-42%
Sinditsiyalashtirilgan kreditlar	4 730	1,64	5 539	1,72	17%

Ushbu jadvalda tijorat banklari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga berilgan kreditlarning qoldiqlari haqida ma'lumotlar taqdim etilgan. 2023-yil yakunlariga ko'ra, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning umumiy miqdori 2022-yilga nisbatan 47 foizga oshib, 148,621 trillion so'mga yetganini ko'rish mumkin. Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar tarkibida ipoteka kreditlari 39,14 foiz, iste'mol kreditlari esa 30 foizni tashkil etib, bu yo'nalishlarda kredit hajmi sezilarli darajada yuqoriligicha qolmoqda.

Yuridik shaxslarga berilgan kreditlar miqdori ham 2023-yilda oldingi yilga nisbatan 12 foizga o'sib, jami 33,684 trillion so'mga yetdi. Kreditlarning asosiy qismi kredit tashkiloti bo'lmagan yuridik shaxslarga ajratilgan bo'lib, 2023-yilda ularning ulushi 94,25 foizga teng bo'ldi (272,485 trillion so'm). 2024-yil boshida esa bu ko'rsatkich 1,41 foizga oshib, 95,66 foizga (308,765 trillion so'm) yetgani kuzatildi. Bu holat yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar portfelining yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganini ko'rsatadi, bu esa bank uchun kelajakda potensial xavf manbai bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. 2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi.

2. [“O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”](#)gi, [“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”](#)gi, [“Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”](#)gi hamda [“To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”](#)gi yangilangan qonunlari
3. Consolidated (2017) Financial Statements Sberbank of Russia and its subsidiaries For the year ended 31 Desember
4. Muminova M.M. (2018) Tijorat banklari aktiv operatsiyalarini boshqarish strategiyasini takomillashtirish PhD ilmiy darajasini oshilish uchun yozilgan dissertatsiya.
5. Bektemirov A., Omonov A.A., Xaydarov Z.Sh., Niyozov Z.D. (2020)Tijorat Banklari Aktiv Va Passiv
6. U.Azizov (2016) va boshqalar. Bank ishi (darslik).-T.: Iqtisod-moliya,-768 b.
7. Moiseev S.R. (2021) Deneno-kreditnaya politika: teoriya i parktika. Uchebnoye posobiye.
8. Sh. Z. Abdullayeva (2010) Bank ishi.
9. A.M.Tavasiev (2011) O‘quv qo‘llanmada
10. Bank ishi: Darslik / Sh.Z. Abdullaeva, U.O‘.Azizov; – T.: «Iqtisod-Moliya», 2019. – 540 b.
11. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Hamkorbank>
12. Rajapov Elyor Eldor o‘g‘li (2024) “BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISH SIFATINI OSHIRISH YO‘NALISHLARINI ASOSLASH” International Conference on Developments in Education Hosted from Toronto, Canada 21st April 2024